



**MODELS AND METHODS FOR  
INCREASING THE EFFICIENCY OF  
INNOVATIVE RESEARCH**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE**

**CONFERENCE**



**ISOC**

INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

[WWW.INTERONCONF.COM](http://WWW.INTERONCONF.COM)

**GERMANY**

**2024**

**ISBN 978-955-3605-86-4**

© Sp. z o. o. "CAN", 2024

© Authors, 2024

**MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH:** a collection scientific works of the International scientific conference (11 May 2024) - Berlin:2024. Part 34 – 410 p.

Editorial board:

**Alexander Dietrich**

ICRA 2021 Editors  
German Aerospace Center (DLR)  
Oberpfaffenhofen, Germany

**Davide Scaramuzza**

ICRA 2021 Editors  
University of Zurich  
Zurich, Switzerland

**Tomohiro Kawahara**

ICRA 2021 Editors  
Kyushu Institute of Technology, Frontier  
Research Academy for Young Researchers  
Fukuoka, Japan

**Barbara Caputo**

ICRA 2020 Editors  
Sapienza Rome University  
Rome, Italy

**Jana Kosecka**

ICRA 2021 Editors  
George Mason University,  
Fairfax (VA), USA

**Wolfram Burgard**

ICRA 2018 Editors  
Toyota Research Institute and University of  
Freiburg  
Freiburg, Germany

Languages of publication: Deutsche, English, Русский, Limba română, uzbek.

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference " MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH ". Which took place in BERLIN on 11- May, 2024.

Tagungsbände werden für Wissenschaftler und Lehrende an Hochschulen empfohlen. Sie können in der Ausbildung eingesetzt werden, einschließlich der Lehre im Aufbaustudium, der Vorbereitung auf den Erwerb von Bachelor-und Master-Abschlüssen. Die Begutachtung aller Artikel wurde von Experten durchgeführt, die Materialien unterliegen dem Copyright der Autoren. Für Inhalt, Prüfungsergebnisse und Fehler sind die Autoren verantwortlich.

<b>Ibodullayeva Dildora</b> <i>YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI</i>	
<b>Raxmatullayeva F.M.</b> <b>Jo'rayev Shaxzod</b> <i>RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURSLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI</i>	<b>508</b>
<b>Narziyeva D.M</b> <b>Karimov Jahongir</b> <i>GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENEGETIKA SOHASINIG TABIATGA TA'SIRI</i>	<b>515</b>
<b>Niyozova I.N.</b> <b>Nuriddinov Nozimbek</b> <i>YASHIL IQTISODIYOT BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSI</i>	<b>521</b>
<b>Mohinur Turdiyeva Raxmatullayevna</b> <i>"MEN KONSEPSIYA" SINING PSIXOLOGIYA SOHASIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI</i>	<b>528</b>
<b>Абдусаттоаров Абдуазим</b> <i>ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ</i>	<b>533</b>
<b>Расулов О.С.</b> <b>Туйчиева Нодира Сахиб қизи</b> <i>ГИМНАСТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ДОШКОЛЬНИКОВ.</i>	<b>536</b>
<b>Qodirov Samandar Bobir o'g'li</b> <i>HARBIY VATANPARVARLIK FAZILATINING AXLOQIY MEZONLARI</i>	<b>540</b>
<b>Shakhriyeva Sevara</b> <i>THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES</i>	<b>544</b>
<b>Qurbonmurodov Axmadshoh Sobirovich</b> <b>Sadullayeva Umida Sobir qizi</b> <b>Payg'amova Farangiz Xurshidovna</b> <b>Rahmatullayeva Mubina Zamonjon qizi</b> <b>Mustafakulova Nilufar Elmurod qizi</b> <i>BOLALARDA UCHRAYDIGAN OSHQOZON ICHAK YALLIG'LANISHI</i>	<b>548</b>



## YASHIL IQTISODIYOT BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSI

*Buxoro davlat universiteti*  
*Iqtisodiyot kafedrası*  
o'qituvchisi **Niyozova I.N.**  
*"Iqtisodiyot va Turizm"*  
fakulteti 4-bosqich talabasi  
**Nuriddinov Nozimbek**


**Annotatsiya.** O'zbekistonda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni taminlashda muhim omillardan biri bu mamlakatimiz iqtisodiyoti va eksporti tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini jadal sur'atlarda oshirishga qaratilgan iqtisodiyotni yanada yuksaltirish hisoblanadi. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosi to'g'risida gap ketadi.

Insoniyat kelgusi yillarda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning taqchilligi, bioxilma-xillikning yo'qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi kabi juda dolzarb muammolarga duch kelishni boshladi. Ushbu tizimli global inqirozlarning barchasi o'zaro bog'liqligi ularni alohida-alohida hal etib bo'lmasligi, shuningdek, an'anaviy iqtisodiy yondashuv ushbu muammolarning yechimiga qaratilgan ham ekologik, ham ijtimoiy maqsadlarning muvozanatini ta'minlay olmasligi ta'kidlanadi. An'anaviy iqtisodiy yondashuv ortiqcha iste'mol qo'llab-quvvatlanishi, ijtimoiy qamrov sustlashishi hamda tabiiy resurslarning keskin kamayishiga olib kelsa, yashil' iqtisodiy yondashuv bularni barchasini rad etib, ijtimoiy farovonlikni hamda ekologik barqarorlik muvozanatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Barqaror rivojlanishni taminlashda yashil iqtisodiyot' o'z o'rniga ega. Shu tufayli eng avvalo yashil iqtisodiyot" tushunchasi va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoniga to'xtalsak: Yashil iqtisodiyot –bu insoniyat va tabiat o'rtasidagi uyg'un o'zaro tasirni qo'llab quvvatlaydigan va bir vaqtning o'zida har ikkala ehtiyojni bir hil qondirishga harakat qiladigan, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotning metadalogiyasidir. Yashil iqtisodiyot' tushunchasining mohiyatini yoritib berishda umum qabul qilingan yondashuvlarning mavjud emasligi yashil iqtisodiyot' konsepsiyasining hali shakillanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, yashil iqtisodiyot' nazariyasi, tamoyillari yoki yashil iqtisodiyot' siyosatiga nisbattan ham qo'llanilishi mumkin. Yashil iqtisodiyot'



konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlantirishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda jalb etish zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasini Prezident tomonidan 2022 yil 28 yanvardagi' 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida'gi PF-60-son farmonida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, shuningdek, Parij bitimi majburiyatlari bajarilishini hamda yashil' iqtisodiyotga o'tishini ta'minlash maqsadida quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanishi ko'rsatilib o'tilgan [PF-60.2022]. Shuningdek 2019—2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan: [PQ-4477, 2019] Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilda qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning 25 % ni, xizmatlar 35,7 % ni, sanoat 25,8 % ni, qurilish 6,2 % ni va eksport, import mahsulotlariga sof soliqlar 7,2 % ni tashkil qildi. YQQ 2021 yilda 7,5 % ga ko'payib, 681,4 trln so'mni tashkil etdi. O'tgan yili iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sanoat va xizmatlar sohasi bo'lib, mos ravishda 9,2 va 8,7 % ga o'sgan. 2021 yilda O'zbekistonga kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalari 2020 yilga nisbatan 33,8 % ga ortib 8,1 mlrd. dollarga yetdi. Xususan, qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlariga asosan 2025-yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining hissasini 12,7 foizdan 19,7 foizga etkazish ko'zda tutilmoqda. Bunda gidroelektrostantsiyalar ulushini 12,7 foizdan 15,8 foizga, quyosh energetikasi 2,3 foizga hamda shamol energetikasi 1,6 foizga etkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, qarorga asosan 2017-2025 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 5,3 milliard dollar bo'lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Qolaversa, ijtimoiy soha va agrar sektor ob'ektlarida zamonaviy energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hisobidan 56,5 million kub metrdan ortiq tabiiy gaz hamda 807,3 million kVt.soatdan ortiqroq elektr energiyasini tejab qolishga erishiladi. Ekspertlar fikriga ko'ra, 2025-yilga qadar O'zbekistonda muqobil energiya manbai 12,7%dan 19,7%ga yetishi kerak. Muqobil energiya tarkibida quyosh energiyasi ulushi 2,3%ga, shamol energiyasi ulushi—1,6% ga yetadi. Shuningdek, ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan energiya hisobidan har yili 9,79 mln tonna shartli yonilg'i miqdorida energiya tejash kutilmoqda. Bugungi kunda energiya tejamliligini oshirish, ekologik toza, noan'anaviy va qayta






tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli foydalanish yer osti boyliklari zahiralari tejash barobarida ekologiyaga chiqarilayotgan zararli gazlarning miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Shu bois butun dunyoda iqtisodiyotning turli sohalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilyapti.

So'nggi yillar ichida "yashil" iqtisodiyot g'oyasi nafaqat ekologiya iqtisodchilari, balki dunyoda ham keng muhokama qilinadi. Bu borada turli siyosiy forumlarda, davlat rahbarlari, siyosatchi olimlar tomonida bu masalaga ko'p bora to'xtalib kelinayotganligi "yashillashtirish" siyosatiga bo'layotgan jiddiy e'tibor bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviylashgan iqtisodiyot sharoitida insoniyat ehtiyoji ham misli ko'rilmagan tarzda oshib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan resurslarni olishda tabiatga "murojaat qilish" ham ko'payib bormoqda. "Yashil iqtisodiyot" mana shunday o'zgarishlar kelajak avlod hayotiga salbiy ta'sir qilishini oldini olish va ular uchun ham farovon hayot ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Agarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy munosabatlarning tabiatga salbiy ta'siri oldi olinmasa, u nafaqat kelajak avlod hayotiga, balki jamiyatning hozirgi sharoitiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Va aksincha, insoniyatning atrof tabiiy muhitga munosabati o'zgarsa, ularda avvalo, ekologik madaniyat rivojlansa, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va mahsulotni iste'mol qilish bilan munosabatlar "yashillashtirish" sa'y-harakatlariga moslashsa, albatta, biz va kelajak avlod hayotining ijobiy tarafga o'zgaradi. Ya'ni "Yashil" iqtisodiyot aholi farovonligini ta'minlashdagi va iqtisodiy o'sishda kabi barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotining modernizatsiyalashuvi davrida ko'plab yangilangan innovatsion texnologiyalarga o'tish, rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi iqtisodiyotning samaradorligi omili bo'lib hisoblanadi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish joizki, albatta, ularning aholi turmush sifatiga va yashash muhitiga salbiy ta'sir qilishni oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli bugungi kunga kelib mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan "yashil" strategiyalar qo'llab-quvvatlanmoqda. So'nggi yillarda milliy iqtisodiyotlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yashil iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun ko'plab mablag'lar yo'naltirilmoqda. Misol uchun, yashil iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan bio energetika sohasiga yo'naltirilgan jami mablag'lar miqdori 2005-2009 yillar oralig'ida 230 foizga o'sdi (o'rta hisobda 50 foiz) va 2013-yilda 320 mlrd. AQSH dollarga teng bo'ldi. 2009-yildan hozirgi kunga qadar "Umumjahon iqtisodiy forumi" mintaqaviy iqtisodiy tizimlarni yashil iqtisodiyotga





o'tkazish uchun 750 mlrd AQSH dollari yo'naltirdi hamda bu mablag'larning asosiy qismi Osiyo mamlakatlariga sarmoya sifatida kiritildi. Natijada, bugungi kunga kelib, xalqaro "yashil" tovar va xizmatlar (cleantech va greentech) bozori yillik tovar aylanmasi 546 mlrd AQSH dollarini tashkil etmoqda. Quyida esa Siz Buyuk Britaniyaning tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish loyihalari tasvirlangan diagrammani ko'rishingiz mumkin. Albatta, bu kabi loyihalar mamlakat ekologik muammolarini bartaraf etishda yetakchi mavqega erishishda katta xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida ham ko'plab xorijiy davlatlardan "yashil iqtisodiyot" borasida tajribalar o'rganilib, "Yashillashtirish" sohasida ko'plab chora-tadbirlari ko'rilishi ekosiyosat doirasida turgan eng muhim dasturul amal masalalardan bo'lib hisoblanadi. Xususan, mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda "yashil taraqqiyot" borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi. Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, atrof tabiiy muhit holati sifatini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan siyosatning ustuvor maqsadlariga erishish uchun ekologiya sohasidagi barcha nazorat funksiyalari ta'minlanishi, atrof muhitni muhofaza qilish ekspertlari uchun yagona metodologiya ishlab chiqilishi, ekologik jihatdan ahamiyatli bo'lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik fikrini o'rganish mexanizmini yaratish, shuningdek, o'quv darslariga ekologiya, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish yuzasidan ilmiy manbalar kiritish orqali ekota'lim berish tizimini rivojlantirish va bu sohada yetakchi malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yarim asr mobaynida sayyoramizda ekologik xavf-xatarlar miqdori ortib borayotgani mutaxassis-olimlarni jiddiy tashvishga solayotir. Iqtisodiy taraqqiyot maqsadlarida energiyadan foydalanishning me'yoridan ortibketishi muammoning asosiy sababi sifatida e'tirof etilmoqda. Yoqilg'ining organik turlaridan foydalanuvchi elektr va issiqlik stansiyalari hamda ichki yonuv



dvigatellaridan chiqayotgan zararli gazlar tufayli atrof-muhit ifloslanmoqda. Yillar davomida atmosferaga zararli moddalar qoldiqlarini katta miqdorda chiqarib yuborilishi natijasida ozon qatlamiga putur yetgan, Yerdan esa global energiya tanqisligi vujudga kelmoqda. Natijada dunyo iqlimining o'zgarishi, energiya quvvati manbalarining kamayishi butunjahon oziq-ovqat tanqisligi muammosi bilan chambarchas bog'lanib, insoniyat oldiga ulkan muammolarni qo'ymoqda. Bundan tashqari, dunyo aholisi sonining muttasil oshib borayotgani sababli energiyaga bo'lgan talabni mavjud energiya tizimlari ta'minlab bera olmaydigan vaziyat yuzaga kelmoqda. Dunyoning 65dan ziyod mamlakatlari o'z oldiga quyosh, shamol, suv energiyasidan foydalanish orqali muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, shuningdek, vodorod, biogaz va boshqalardan kengroq foydalanishga qaratilgan maqsadlarni qo'yishgan. Yashil iqtisodiyot deganda, odamlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni rivojlantirishga va har ikkalasining ham ehtiyojlarini bir vaqtning o'zida qondirishga qaratilgan yondashuvni ishlab chiqishga qaratilgan iqtisodiy intizom tushuniladi. Yashil iqtisodiyot ekologik iqtisod bilan chambarchas bog'liq, biroq undan farq qiladi, chunki bu barqaror yechimlarning siyosiy targ'ibotini o'zida qamrab olgan yaxliyondashuv hisoblanadi. O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolli yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida ham asosiy to'rtta ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib asosiy etibor energiya samaradorligini oshirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'zlashtirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy etish, shuningdek tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish "yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida energiya xavfsizligiga, bo'sh ish o'rinlarini yaratilishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga va mamlakat rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mominov A. «Iqtisodiy o'sish va uning omillari nimalardan iborat» O'zbekiston ovozi. 2020-yil 20-may.
2. Barqaror iqtisodiy o'sish va uni ta'minlash bosqichlarining tahlili, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar' ilmiy elektron jurnali, No6, noyabr-dekabr, 2020-yil





3. Yashil iqtisodiyot' asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari, XXI asr: fan va ta'lim' ilmiy elektron jurnali. No2, 2017.
4. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash-barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti, Iqtisodiyot va Ta'lim' ilmiy jurnali, No2,2017.
5. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar' ilmiy elektron jurnali, No1, yanvar-fevral, 2017.92
6. Abdulloyev, A. (2023). Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
7. Abdulloyev, A. (2023). АГРОКЛАСТЕР ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШНИНГ “БАЗАВИЙ” МОДЕЛИ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
8. Choriyeva, N. (2022). Priorities in the Development of Agricultural Cooperation in Uzbekistan. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 16(16).
9. Choriyeva, N. (2022). РАЗВИТИЕ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КЛАСТЕРОВ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 16(16).
10. Dustova, A. (2022). Stimulating The Economic Growth Of Territories Through The Development Of Regional Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 12(12).
11. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
12. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. European journal of business startups and open society, 3(12), 154-157.
13. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.
14. Qayimova, Z. (2023). Ways to Develop Economic Infrastructure in Uzbekistan. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).
15. Kadirovna, S. N. (2024). Importance of Foreign Experience for Uzbekistan in the Transition to a Green Economy. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(4), 48-51.
16. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).





17. Anatolyevna, R. I., & Bayazovna, G. N. (2022). The Role of Innovative Marketing in the Development of the Textile Industry. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(11), 10-14.
18. Bayazovna, G. N. (2022). Ensuring the Development of Textile Enterprises on the Basis of Competitive Advantage. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 3(6), 40-45.
19. Giyazova, N. (2022). РАЗРАБОТКА МЕТОДА ДИАГНОСТИКИ ВЛИЯНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 20(20).
20. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. Gospodarka i Innowacje., 43, 335-340.
21. Igamova, S. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).
22. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
23. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 207-211.
24. Rakhmatullaeva, F. M., & Nurova, G. N. (2020). The importance of trade policy in the economic development of the country. Economics, 1, 27-28.
25. Muxammedovna, Z. N., & Ravshanovna, R. G. (2023). DIRECTIONS FOR USING DIGITAL MARKETING IN THE FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF THE ENTERPRISE.
26. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(12), 47-50.
27. Хаирова, Д. Р., & Сайфуллаева, М. И. (2021). Тенденции развития цементной индустрии в Узбекистане. Бюллетень науки и практики, 7(6), 358-362.



## “MEN KONSEPSIYA” SINING PSIXOLOGIYA SOHASIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

**Mohinur Turdiyeva Raxmatullayevna**

*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi 66-umumta’lim maktabining  
psixologi*

**Annotatsiya** *Shaxsga “Men” konsepsiyasini qurish uchun material sifatida nafaqat uning ijtimoiy rollari va o`zini atrofdagilar bilan taqqoslashining natijalari xizmat qiladi, balki bu jarayonda oddiy turmush tarzining ham ahamiyati katta. Shaxs o`z oldiga qiyin, lekin amalga oshirsa bo`ladigan maqsadlarni qo`yib va uni uddasidan chiqishi orqali o`zining qobiliyatli ekanligini his etishi ham unga o`zini anglashida yordam beradi.*

**Kalit soʻzlar:** *oʻz-oʻzini anglash, menlik konsepsiyasi, shaxs, stress, depressiv holat, hissiyot, affektiv holat.*

**Аннотация** *Материалом для построения понятия «Я» служат не только результаты его социальных ролей и результаты сравнения себя с другими, но и большое значение в этом процессе имеет простой образ жизни. То, что человек чувствует, что он способен, ставя сложные, но достижимые цели и достигая их, также помогает ему реализовать себя.*

**Ключевые слова:** *самосознание, Я-концепция, личность, стресс, депрессивное состояние, эмоция, аффективное состояние.*

**Abstract** *Not only his social roles and the results of comparing himself with others serve as the material for building the concept of "I" for each person, but also the simple way of life is of great importance in this process. A person's sense of competence by setting difficult but achievable goals and achieving them also helps them to develop self-awareness.*

**Keywords:** *self-awareness, self-concept, personality, stress, depressive state, emotion, affective state.*

“Men” konsepsiyasi” (inglizcha self-concept) – insonning o’zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanib boruvchi tizimi, uning tarkibiga: a) o’zining jismoniy, intellektual, xarakterologik, ijtimoiy va boshqa hususiyatlarini idrok qilish; b) o’zo’ziga baho berish; v) shaxsiyatga tasir o’tkazuvchi tashqi omillarni subyektiv idrok etish kiradi. “Men” konsepsiyasi tushunchasi 1950- yillarda fenomenologik, gumanistik

